
Semantic transformation of economic-financial Latin loanwords in Uzbek official documents

Juraev Shohruh Bakhtiyorovich
Associate professor,
"Cyber University" State University

Annotation

This article examines the semantic transformation of Latin-based loanwords related to the economic and financial sphere in Uzbek official documents. The relevance of the study is determined by the need to analyze lexical and semantic changes taking place in the Uzbek language under the influence of globalization, international economic relations, financial regulation, and modern terminological development. The theoretical framework of the article is based on E. Haugen's approach to linguistic borrowing, E.C. Traugott and R.B. Dasher's theory of semantic change, and A. Blank's cognitive typology of motivations for the emergence of new meanings. The empirical material consists of seven presidential decrees and resolutions issued between 1991 and 2025 in the field of economics and finance. The study combines statistical, etymological, semantic, and contextual methods of analysis. The frequency analysis demonstrates a gradual increase in the use of Latin-rooted loanwords in Uzbek official documents, especially in the most recent five-year period. Particular attention is paid to such lexical units as balans, eksport, import, inkubator, komissiya, kompensatsiya, sanksiya, and tendensiya. The article analyzes their origin, paths of borrowing, adaptation into Uzbek, and semantic development in official discourse. The findings show that most of these lexical units entered Uzbek through Russian mediation and are used mainly in denotative, terminological, and normative meanings. The study concludes that Latin loanwords play an important role in the formation, modernization, and functional expansion of economic and financial terminology in Uzbek official language.

Keywords

Loanword, Latin-rooted lexemes, economic-financial terms, semantic changes, internationalism, semantic shift, semantic narrowing

O'zbek tilidagi rasmiy hujjatlarda iqtisodiy-moliyaviy sohaga oid lotincha o'zlashmalarning semantik transformatsiyasi

Jo'rayev Shohruh Baxtiyorovich
Dotsent,
"Cyber University" davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi rasmiy hujjatlarda iqtisodiy-moliyaviy sohaga oid lotincha o'zakli o'zlashma birliklarning semantik transformatsiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi globallashuv, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, moliyaviy boshqaruv tizimi va zamonaviy terminologik jarayonlar ta'sirida o'zbek tili leksik qatlamida yuz berayotgan ma'no o'zgarishlarini ilmiy asosda yoritish zarurati bilan belgilanadi. Maqolada E. Haugenning lingvistik o'zlashuv nazariyasi, E.C. Traugott va R.B. Dasherning semantik o'zgarish haqidagi qarashlari hamda A. Blankning yangi ma'nolarning yuzaga kelishiga doir kognitiv-tipologik yondashuvi nazariy asos sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot materiali sifatida 1991-2025-yillar oralig'ida iqtisodiy-moliyaviy sohaga oid yettita prezident qarori va farmoni tanlab olingan.

Statistik tahlil natijalari lotincha o'zlashmalarning rasmiy hujjatlardagi ulushi mustaqillikning dastlabki yillariga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Xususan, balans, eksport, import, inkubator, komissiya, kompensatsiya, sanksiya va tendensiya kabi leksemalarning etimologiyasi, kirib kelish yo'llari, kontekstual qo'llanilishi hamda semantik kengayish xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada aniqlanishicha, mazkur birliklarning aksariyati o'zbek tiliga rus tili vositachiligida kirib kelgan bo'lib, rasmiy hujjatlarda asosan denotativ, terminologik va normativ ma'nolarda qo'llanadi. Tadqiqot natijalari lotincha o'zlashmalar iqtisodiy-moliyaviy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishida muhim leksik manba bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar O'zlashma, lotincha o'zakli leksemalar, iqtisodiy-moliyaviy terminlar, semantik o'zgarishlar, internatsionalizm, ma'no ko'chishi, ma'no torayishi.

Семантическая трансформация латинских заимствований экономико-финансовой сферы в официальных документах узбекского языка

Жураев Шохрух Бахтиёрович
Доцент,
Государственный университет
"Cyber University"

Аннотация В данной статье рассматривается семантическая трансформация латинских заимствований, относящихся к экономико-финансовой сфере, в официальных документах узбекского языка. Актуальность исследования определяется необходимостью научного анализа лексико-семантических изменений, происходящих в узбекском языке под влиянием глобализации, международных экономических связей, финансового регулирования и развития современной терминологии. Теоретическую основу статьи составляют концепция языкового заимствования Э. Хаугена, взгляды Э.К. Трауготта и Р.Б. Дэшера на закономерности семантических изменений, а также когнитивно-типологический подход А. Бланка к причинам возникновения новых значений. Материалом исследования послужили семь президентских постановлений и указов, принятых в 1991-2025 годах и относящихся к экономико-финансовой сфере. В работе применяются статистический, этимологический, семантический и контекстуальный методы анализа. Результаты частотного анализа показывают, что доля латинских заимствований в официальных документах узбекского языка значительно возросла по сравнению с первыми годами независимости. Особое внимание уделяется таким лексическим единицам, как баланс, экспорт, импорт, инкубатор, комиссия, компенсация, санкция и тенденция. В статье анализируются их этимология, пути проникновения в узбекский язык, особенности адаптации и семантического развития в официальном дискурсе. Установлено, что большинство данных единиц вошло в узбекский язык при посредничестве русского языка и в официальных документах употребляется преимущественно в денотативном, терминологическом и нормативном значении. Делается вывод о том, что латинские

заимствования играют важную роль в формировании и развитии экономико-финансовой терминологии современного узбекского официального языка.

Ключевые слова

Заимствованное слово, лексемы латинского происхождения, экономико-финансовые термины, семантические изменения, интернационализм, семантический сдвиг, сужение значения

So'nggi yillarda tilimiz rivoji uchun olib borilayotgan keng ko'lamli izlanishlar, xususan terminologiyaga oid tadqiqotlar o'zbek tilshunosligining bir qator, haligacha o'rganilmagan lisoniy jabhalarini yoritib kelmoqda. Shunga qaramay, globallashuv har qanday rivojlanayotgan tilga, uning sathlariga ta'sir o'tkazmay qolmaydi, jumladan o'zbek tili leksikasiga ham. Shu sababli, zamonaviy sohalar va ularning tarmoqlarida foydalaniladigan chet so'zlar va tushunchalar, ularning ma'no xususiyatlari bilan bog'liq o'zgarishlarning tadqiqi mazkur maqolamizning dolzarb ahamiyatini belgilab beradi. Bilamizki, har qanday til tizimi boshqa tillar bilan bevosita, hamda bilvosita aloqaga kirishadi. Buning natijasida, uning ko'plab qatlamlariga, asosan leksik qatlamiga xorijiy so'zlar, so'z birikmalari va boshqa lingvistik elementlar o'zlashadi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, o'zbek tili leksikasiga oid, xususan o'zlashma qatlam doirasida sezilarli darajada o'rganib kelinmoqda. Holbuki, so'nggi yillardagi o'zbek tilida chiqarilgan me'yoriy-huquiy hujjatlar matniga asoslangan, hamda ularda uchrovchi lotincha o'zakli leksik birliklar hamda ularning semantik o'zgarishlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar mavjud emas. Shu sababdan, mazkur maqolamizda iqtisodiy-molyaviy sohaga oid lotincha o'zlashmalarning rasmiy hujjatlarda voqelanishi tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

O'zlashma so'zlarni tizimli tadqiqiga bag'ishlangan E. Haugenning *The Analysis of Linguistic Borrowing* maqolasida o'zlashuv

jarayonini oddiy "so'z olish" hodisasi sifatida emas, balki ikki tilli nutq egalarining til tizimlari o'rtasidagi faol aloqasi natijasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, o'zlashmani tahlil qilish bilingual nutq xulqini o'rganishdan boshlanishi kerak (Haugen, 1950). Bu yondashuv o'zbek tiliga rus tili, ingliz tili yoki xalqaro terminologik qatlam orqali kirib kelgan iqtisodiy-moliyaviy birliklarni faqat etimologik ildiziga qarab emas, balki qabul qiluvchi til tizimidagi fonetik, morfologik va semantik moslashuvi asosida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Semantik transformatsiya masalasida E.C. Traugott va R.B. Dasherning *Regularity in Semantic Change* asari muhim nazariy asos vazifasini bajaradi (Traugott&Dasher, 2001). Mualliflar ma'no o'zgarishini tarixiy pragmatika va diskurs tahlili nuqtayi nazaridan izohlaydi hamda yangi ma'nolar ko'pincha nutq jarayonidagi assotsiativ bog'lanishlar va kontekstual inferensiyalar orqali yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Semantik transformatsiyani tizimli tasniflash uchun zarur usullardan biri sifatida Blank yangi ma'nolarning paydo bo'lishini kognitiv omillar, kommunikativ ehtiyoj, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar va terminologik qayta talqin bilan bog'laydi (Blank, 1999).

Mazkur tadqiqotda 1991–2025-yillar davomida iqtisodiy-moliyaviy sohalariga oid 7ta prezident qaror va farmonlari qamrab olindi. Avvalo, ishimizning ishonchliligini ta'minlash maqsadida o'zlashmalarning rasmiy hujjatlarda qo'llanilish faolligi, lotincha o'zlashmalarning nisbatlari, hamda ulardan eng ko'p uchrovchi leksemalar ajratib olinib, statistik tahlil olib borildi.

Har besh yillik davrlar	Matndagi jami soʻz	Lotincha oʻzlashmalar foizi
1991-1995	280	5.56%
1996-2000	433	4.62%
2001-2005	1230	5.44%
2006-2010	813	7.13%
2011-2015	358	8.37%
2016-2020	1362	10.35%
2021-2025	942	14.12%

1-jadval. Iqtisodiy-moliyaviy sohaga oid lotincha oʻzlashmalarning chastotali statistikasi.

1-jadvaldagi statistik tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilidagi iqtisodiy-moliyaviy sohalarga oid rasmiy hujjatlarda lotincha oʻzakli leksik birliklarning qoʻllanilish chastotasi soʻngi 5 yillikda mustaqillikning ilk yillariga nisbatan uch barobarga oshgan.

Tahlil davomida aniqlangan va rasmiy matnlardagi chastotasiga koʻra 5 marta va undan ortiq qoʻllanilgan oʻzlashmalar: *balans, eksport, import, komissiya, kompensatsiya, sanksiya, summa, tendensiya*.

Quyida faol lotincha leksik birliklarning etimologiyasi, kirib kelish yoʻllari hamda rasmiy hujjatlardagi kontekstual misollar orqali ularning semantik oʻzgarishlari oʻrganilgan.

Balans – muvozanat, tenglik maʼnolaridagi internatsionalizm hisoblanadi. Lotincha *bi-ikki, lanx – likopcha* soʻzlarining qoʻshilishidan, klassik lotin tilida tarozi pallasini anglatib kelgan (OED, 2025). Shu maʼnoda fransuz tiliga *balance* shaklida oʻzlashgan. Soʻzning “bank hisobidagi mablagʻni” ifodalovchi tushunchasi esa fransuz, rus va oʻzbek tillarida mavjudligi aniqlandi. Taʼkidlash joizki, balans soʻzining transliteratsiyasi hamda maʼno xususiyatiga koʻra, fransuz tilidan rus tiliga, va rus tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan deya olamiz.

Rasmiy hujjatlarda ham faqat balans soʻzining konnotativ maʼnosida qoʻllanilishi faqatgina oʻzbekcha rasmiy hujjatlarda topildi: “yuridik shaxs maqomiga ega davlat taʼlim muassasasi boʻlib, oʻz mustaqil balansiga, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining

Gʻaznachiligida shaxsiy gʻazna hisobvaraqlariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va oʻz nomi davlat tilida yoziladigan muhriga ega boʻladi” (OʻzRes Xalqaro Shartnomalar Toʻplami, 2004).

Eksport – bir mamalakatdan boshqa mamlakatlarga mol yoki kapitalni chiqarish – savdo maqsadida. Eksport leksemasi etimologiyasi lotincha *exportare* – *ex* – “tashqariga”, *portare* – “hududdan, portdan” soʻzlari birikmasidan yasalgan, va *exportare* – biror yukni bir joydan boshqa joyga chiqarishni anglatgan. Ammo, ilk bora hozirgi semantik tushunchasi ingliz tilida XV asrdan boshlab qoʻllanilib kelinmoqda (OED, 2025). Keyinchalik, mazkur leksema boshqa tillarga ayni tushunca sifatida oʻzlashgan, jumladan oʻzbek tiliga ham.

Oʻzbek tilidagi rasmiy hujjatlar matnida ham eksport soʻzining yuqorida izohlangan zamonaviy semasi sifatida qoʻllanilganligi asoslandi: “... taqiq va cheklashlarsiz kirib kelishga yoʻl qoʻyilishi mumkin, bunda mazkur vositalar qayta eksport qilinishi shart” (OʻzRes Xalqaro Shartnomalar Toʻplami, 2004).

Import – chet eldan yuk yoki kapitalni bir mamlakatga olib kirish. Etimologik xususiyatiga koʻra, lotincha *in portare* – *in* – ichkariga, *portare* – tashimoq, olib kirmoq soʻzlari birikishidan oʻrta asrlarda *import* leksemasi shakllangan. Ingliz tilining oʻzida XVI asrdan boshlab import soʻzi “eʼtibor, diqqat, muhim belgi” kabi tushunchalarni ifodalashda qoʻllanilib boshlansa, XVI asr oʻrtalaridan

boshlab aynan iqtisodiy jarayon ma'nosida *import* tushunchasi xorijdan olib kelinganlikni ifodalashda qo'llanilib boshlangan (www.merriam-webster.com/dictionary/importation). O'zbek tiliga aynan savdo munosabatini anglatuvchi tushuncha sifatida o'zlashgan. Tilimizda mazkur leksemaning faqat ot turkumida bir xil shakli – *import*, ingliz tilida esa ot so'z turkumida *import* va *importation* hamda fel turkumida *import* shakllari mavjud. Har ikkala tildagi rasmiy hujjatlarda import leksemasi denotativ ma'nolarda kelishi aniqlandi.

Inkubator – (lot. *incubare* – 'tuxum bosmoq, bosib o'tirmoq') – leksema zamonaviy ingliz tili doirasida semantik ko'chish hodisasiga uchragan. Termin ilk bora AQShning biznesga oid hujjatlarida foydalanilgan (OED, 2025). O'zbek tili leksikasiga rus tili orqali o'zlashgan. Chunki, inkubator tushunchasi bilan bog'liq apparatlar XX asrning o'rtalaridan ommalashib boshlagan.

"Xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv auditoriyalari, kovorking markazlari, IT laboratoriya, biznes inkubator va anjumanlar zalini o'z ichiga olgan multifunksional ko'p qavatli binoni barpo etish" (O'z. Res. Prezidentining 07.02.2024 yildagi PQ-62-sonli qarori).

Biznes inkubator birikmasi iqtisodiyot sohasiga oid tushuncha sifatida so'nggi yillardagi o'zbekcha rasmiy hujjatlarda ham bir necha o'rinlarda kuzatildi. Ammo, o'zbek tilining izohli lug'atlarida mazkur leksemaning yangi semantik ma'nosi qayd etilmagan. Xususan, O'zbek tilining izohli lug'atida *inkubator* leksemasining faqat "tuxumdan sun'iy yo'l bilan jo'ja ochiradigan apparat" izohi berilgan (O'TIL, 2023).

Komissiya – o'zbek tilida polisemik o'zlashma bo'lib, lotin tilidagi *commission-*, *commissio* so'zlari fransuz tiliga va u orqali rus tiliga o'zlashgan. Shu jumladan, o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan.

O'zbek tilida komissiya so'zi ilk tushuncha sifatida biror bir organ yoki tashkilot tomonidan ma'lum maqsadda (tekshirish,

shartnoma tuzish, o'rganish kabilar) tashkil etilgan guruh a'zolarini ifodalagan. Keyinchalik, birja faoliyati rivojlanishi bilan, komissiya so'zi birja munosabatlarida vositachi yoki o'rtadagi vakilning shartnoma kelishuvi asosida ma'lum xizmat uchun to'lanadigan haqni ham anglatib boshladi (O'TIL, 2023).

Kompensatsiya – biror nersa badaliga haq to'lash; tovon puli undurish yoki to'lab berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 31-yanvardagi PQ-49-son qarorida kompensatsiya so'zi quyidagicha kontekstda kelgan: "...qiymati 20 milliard so'mgacha bo'lgan kreditlar bo'yicha, foiz stavkasining Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshadigan, lekin uning 1,5 baravaridan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun Davlat budjeti hisobidan kompensatsiya taqdim etiladi" (O'z. Res. Prezidentining 2024 yil 31-yanvardagi PQ-49-son qarori).

Lotincha *compensatio* oti *compensare* – "birga o'lchamoq" felidan yasalgan. Leksema o'zbek tili leksik qatlamiga rus tili vositachiligida o'zlashgan.

Mazkur leksema o'zbek tilida polisemiya xususiyatiga ega. O'z ma'nosida badalga yoki oldindan aniq bo'lmagan ko'ngilsizlik uchun moliyaviy yoki boshqa usuldagi rag'batlantirish tushuniladi. Semantik kengayib, nutqda har qanday ko'ngilsizlikdan keladigan zararning ijobiy rag'bati, biror salbiy xususiyati mavjud holatning, boshqa bir pozitiv xususiyati mavjudligini ifodalaydi.

Sanksiya – normativ-huquqiy hujjatlarda va siyosiy lug'atlarda qaror va farmonlarning qonuniy kuchga ega ekanligining tasdiqlanishini, hamda xalqaro siyosatda ma'lum bir hukumat yoki davlatga boshqa tashkilot, jamiyat yoki davlatlar tomonidan ma'lum doirada taqiqlar o'rnatilishini ifodalaydi. Bundan tashqari, o'zbek tili izohli lug'atida sanksiya so'zining 4 ta ma'nosi izohlangan (O'TIL, 2023).

Sanksiya – lotincha *sancire* – "tasdiqlamoq" felining *sanctio* shaklida ot yasalishidan yevropa tillariga ko'chgan va ilk

tushunchasi “qonunlarni joriy qilish va ularning tadbiiq qilinishini” ifodalovchi leksika bo’lgan. Keyinchalik, polisemantik xususiyatlari kengayib, siyosiy-iqtisodiy doiralarga ham qonunlarning tadbiiqi va ma’lum turdagi taqiqlarni ifodalovchi ma’nolariga ega bo’lgan (www.merriam-webster.com/dictionary/sanction). Qayd etish lozimki, sanksiya so’zi siyosiy termin sifatida o’zlashib, keyinchalik semantik kengayishga uchragan.

Sanksiya so’zining o’zbekcha rasmiy hujjatlarda asosan “huquqiy meyorning, qonun moddasining ushbu qonun buzilishidan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar ko’rsatib o’tilgan qismi” izohiga mos termin sifatida qo’llanilishi topildi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 23 – yanvar, 2024 – yilgi O’RMB-3492-son qarori matnida – “...kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolariga, shuningdek bankning muhim ahamiyatga ega xodimlariga nisbatan choralar va *sanksiyalarni* qo’llash tartibini belgilaydi” va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlarida (O’z. Res. Prezidentining 07.02.2024 yildagi PQ-62-son qarori).

Tendensiya – biror bir xarakter yoki axloqqa moyillik, intilishni ifodalovchi tushuncha.

O’zbekcha normativ-huquqiy hujjatlarda tendensiya so’zi ma’lum bir sohadagi mavjud yoki innovatsion bir yangilik yoki trendga bo’lgan ommaviy moyillikni, intilishni ifoda etib keladi. Masalan, “...iqtisodiyot, moliya va soliq sohalari bo’yicha dunyodagi so’nggi tendensiyalar, moliyaviy texnologiyalar, ilg’or xorijiy tajriba va real iqtisodiyot talablarini hisobga olgan holda oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish” (O’z. Res. Prezidentining 07.02.2024 yildagi PQ-62-son qarori) jumlasida iqtisodiy va moliya sohalariidagi keyingi yillarda targ’ib etilayotgan innovatsion keng omma tomonidan targ’ib etilayotgan iqtisodiy va moliyaviy g’oyalarni tadbiiq qilish nazarda tutilganiligi tushuniladi.

Tendensiya so’zining o’zagi lotincha *tendere* – cho’zilmoq, qayishmoq ma’nosidagi fe’ldan *tendentia* – biror nersaga qarab yaqinlashish ma’nosini ifodalovchi ot so’z turkumidagi leksik birlik yuzaga kelgan (OED, 2025). Hozirda ingliz, nemis, rus va hatto o’zbek tilida ham mazkur so’z tushunchasi aksariyat hollarda yuqorida izohlangan ma’nosida qo’llaniladi. Ammo, o’zbek tilining izohli lug’atida tendensiya so’zi 2-ma’nosida “ma’lum o’y-mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy g’oyasi, mazmuni ifodalarini” anglatishi keltirilgan (O’TIL, 2023).

Yuqoridagi semantik hodisalarning tahlili natijalaridan quyidagicha xulosalarni yasash mumkin:

- Lotin tilidan o’zlashgan aksariyat leksik birliklar zamonaviy soahalar rivoji natijasida semantik kengayishga uchragan.
- O’zbek tiliga o’zlashgan barcha lotincha o’zakli leksemalarning transliteratsiyasi hamda ma’no xususiyatlari bevosita rus tili ta’siriga ega.
- Rasmiy hujjatlar matnida o’zlashma birliklarning denotativ ma’nolari ifodalangan bo’ib, ularning nutqimizda uchrovchi konotativ xususiyatlari aniqlanmadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, har qanday tilning dinamik xususiyati, undagi leksik qatlamidagi o’zgarishlarga qarab belgilanadi.

References:

1. Madvaliyev, A., & Xudayberganova, D. (Mas’ul muharrirlar). (2023). *O’zbek tilining izohli lug’ati: 80 000 dan ortiq so’z va so’z birikmasi* (J. II. E–K). G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

2. Madvaliyev, A., & Xudayberganova, D. (Mas'ul muharrirlar). (2023). *O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi* (J. V. P–T). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017, 26 sentabr). *Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* (Qaror № PQ-3289). LexUz. <https://lex.uz/ru/docs/-3357530>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 31 yanvar). *Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu jarayonga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish imkoniyatlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida* (Qaror № PQ-49). LexUz. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6785346>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 7 fevral). *Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* (Qaror № PQ-62). LexUz. <https://lex.uz/docs/-6794040>
6. O'zbekiston Respublikasi Xalqaro shartnomalar to'plami. (2004). *O'zbekiston Respublikasi hukumati va Italiya Respublikasi hukumati o'rtasida avtomobillarda xalqaro yo'lovchi va yuk tashishni o'zaro tartibga solish bo'yicha bitim* (35-bet).
7. Blank, A. (1999). Why do new meanings occur? A cognitive typology of the motivations for lexical semantic change. In A. Blank & P. Koch (Eds.), *Historical Semantics and Cognition* (pp. 61–90). Berlin, Boston: De Gruyter Mouton. <https://doi.org/10.1515/9783110804195.61>
8. Haugen, E. (1950). The analysis of linguistic borrowing. *Language*, 26(2), 210–231.
9. Oxford University Press. (n.d.). Balance, n.¹, Etymology. In Oxford English dictionary. Retrieved May 8, 2026, from <https://doi.org/10.1093/OED/1133062100>
10. Oxford University Press. (n.d.). Export, v., Etymology. In Oxford English dictionary. Retrieved May 8, 2026, from <https://doi.org/10.1093/OED/2066331500>
11. Oxford University Press. (n.d.). Incubator, n., Etymology. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved August 13, 2025, from <https://doi.org/10.1093/OED/8947482623>
12. Traugott, E. C., & Dasher, R. B. (2001). *Regularity in Semantic Change*. Cambridge: Cambridge University Press.
13. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/importation>
14. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/sanction>